

AGATA KRISTI

821.111-312.4

K 81 AB

413693

ONTA
negr bolasi



AGATA KRISTI

Q'NTA
negr bolasi

Roman



TOSHKENT
«O'ZBEKISTON»
2018

UO'K 821.111-31
KBK 84(4Bbr)
K 81

Rus tilidan Hasanboy Teshaboyev tarjimasi

BIRINCHI BOB

Kashandalar uchun mo'ljallangan birinchi klass vagonning bir burchagida sudya Uorgreyv – u yaqinda iste'foga chiqdi – sigara tutgancha «Tayms»dagi siyosiy xabarlarini ko'zdan kechirardi. Ko'p o'tmay, gazetani chetga surib, oynadan qaradi. Poyezd Somerssetdan o'tib borardi. Sudya xayolan chamalab ko'rdi – yana ikki soat yo'l bosh kerak.

Yo'l bo'yi Zanjilar oroli haqida gazetalarda yozilgan gaplarni qayta-qayta eslab chiqdi. Uni avval amerikalik millioner – ishtiyoqmand yaxtachi sotib olgan. Tez orada Devon qirg'og'idan uncha olis bo'lmagan ushbu orolda zamonaviy usulda qurilgan hashamatli uy qad rostladi. Biroq ne nadomatki, millioner uchun yangi ovunchoq bo'lmish uchinchi xotinining kema chayqalishiga tobi yo'q ekan. Shu bois, millioner uyniyam, orol-niyam bahridan o'tishga majbur bo'ldi. Qarabsizki, gazetalarda g'oyat jozibador ta'rif-u tavsiflar bilan orol sotilishi haqida e'lon paydo bo'ldi.

Keyin orolni allaqanday janob Onim sotib olgani haqida xabar tarqaldi. Shundan so'ng gazeta xronikachilarining boy tasavvuri ishga tushib ketdi. Aslida Zanjilar orolini Gollivud kinoyulduzi miss Gabriella Tyorl sotib olgan! Bir necha oyni o'sha yerda xotirjam, ya'ni muxbirlar-u oldi-qochdi shov-shuvlardan yiroqda o't-



kazmoqchi! «Bizi Bi» nazokat bilan shama qildi: Orol qirollik oilasining yozgi qarorgohi bo'ladi. Janob Merriueder qulog'iga bundan-da ajib gaplar chalinibdi: go'yoki orolni yosh lord L. sotib olgan. Va nihoyat u ham Kupidon¹ qurboniga aylanib, endi asal oyini shu orolda o'tkazishni niyat qilmoqda. «Jonas»ga aniq-tiniq ma'lum edi – o'ta maxfiy tajribalar o'tkazish maqsadida orolni harbiy flot boshqarmasi sotib olgan!

Darhaqiqat, Zanjilar oroli gazeta sahifalaridan tushmas edi.

Sudya Uorgreyv cho'ntagidan xatni oldi. Bunchalik xunuk dastxatni o'qish amrimahol bo'lsa-da, aji-buji yozuvlar orasida aniq yozilgan jumlar ham ko'zga tashlanardi:

«Qimmatli Lorens... Yuz yildan beri ko'rinmay ketdingiz... Zanjilar oroliga, albatta, keling... Maftunkor joy... gaplashadigan gap ko'p... yoqimli xotiralar... tabiat qo'ynida bo'lamiz... oftobda toblanamiz... 12.40. Paddington vokzalidan... Sizni Oukbrijda kutib olaman... – xat oxiriga jimjimador imzo qo'yilgan – doimo intizor Konstansiya Kalmington».

Sudya xayolida o'tmish xotiralarini jonlantirib, ledi Konstansiya Kalmingtonni oxirgi marta qachon ko'rganini eslashga urindi. Chamasini, yetti yil avval. Agar sakkiz yil bo'lmasa. O'shanda u oftobda toblanish, tabiat va «haqiqiy erkak» qo'ynida bo'lish uchun Italiyaga jo'nab ketgandi. Shundan so'ng Suriyaga ko'chib o'tgan. U yerda yanayam jazirama quyoshda toblanib, yovvoyitabiat va badaviylar bilan til-lashishni maqsad qilgan.

¹ Qadimgi Rim mifologiyasida sevgi ma'budi.



«Orol sotib olish, – deb o'yladi sudya, – sirli hayot qo'ynida yashash Konstansiya Kalmington fe'l-atvoriga tamomila mos tushadi». U mamnun bosh irg'adi: ayni paytda o'zidan xursand edi – har doimgidek nishonga bexato urdi. Keyin ko'zi ilinib, bir maromda chayqala boshladi.

Vera Kleytorn – u uchinchi klassda ketayotgandi – o'rindiq suyanchig'iga o'zini tashlab, ko'zini yumdi. Vagonda undan bo'lak yana beshta yo'lovchi bor edi. Bugun poyezdning ichi o'lgudek issiq! Birmuncha vaqt bo'lsa ham, dengizda yashash qanday yoqimli! Yo'q, ish borasida omadi chopishini sira kutmagandi! Yozda ish qidirsang, nuqul bolalar ichida o'ralashib yurishga to'g'ri kelardi. Kotibalikka joylashib olish deyarli ilojsiz narsa. Hatto agentlik orqali ham.

Birdan xat oldi:

«Menga sizni «Ishbilarmon ayollar» agentligi tavsiya qildi. Adashmayotgan bo'lsam, ular sizni yaxshi bilishadi. Qancha maosh olmoqchi ekaningizni ayting. Oldindan barchasiga roziman. 8-avgustdan boshlab xizmat burchingizni bajarishga kirishasiz. Poyezd 12.40 da Paddington vokzalidan jo'nab ketadi. Sizni Oukbrij bekati-da kutib olishadi. Yo'l xarajati uchun besh funt qo'shib jo'natyapman. Samimiyat ila, Anna Nensi Onim».

Yuqoriga manzil yozib qo'yilgan: «Zanjilar oroli, Stiklxevn. Devon».

Zanjilar oroli! Keyingi paytlarda gazetalar faqat shu haqda yozishyapti! Muxbirlar tagdor luqmalar tashlab, ajabtovur mishmishlarni urchitishardi. Aftidan, hammasini ham rost deb



bo'lmadi. Lekin nima bo'lgan taqdirda ham, o'sha uyni millioner qurdirgan. Va aytishganidek, u yerdagi dabdabadan har kimning aqli shoshadi.

Yaqinda tugagan semestr tufayli xiyla toliqqan Vera Kleytorn: «O'rtamiyona maktabda jismoniy tarbiya o'qituvchisi bo'lish nimaligi yolg'iz xudoga ayon... Qaniydi, birorta tuzukroq maktabdan ish topolsam», deb o'yladi. Bu o'ydan ichi zil ketsa-da, o'zini o'zi koyiy boshladi: «Yo'q, aslida omadim keldi. Agar ishing tergovda bo'lsa, oxir-oqibat seni, hatto oqlab yuborishganda ham, gardaningda bir umrlik dog' qoladi».

Keyin tergovchi o'z xulosasida undagi dadillik va jasurlikni alohida qayd qilib o'tgani esiga tushdi. Ha, tergov yaxshi o'tdi. Bundan ortig'ini kutib bo'lmadi. Xamilton xonim ham unga juda mehribonlik qildi. Agar Xyugo bo'lmandami... (Yo'q, yo'q, endi Xyugo haqida o'ylamaydi!)

Jazirama issiqqa qaramay, eti jimirlab ketdi. Dengizga borayotganidan afsuslandi. Ko'z o'ngida tanish manzara paydo bo'ldi. Siril qoya tomon suzib ketyapti, boshi goh suv yuzida paydo bo'ladi, goh ko'rinmay qoladi... Paydo bo'ladi, ko'rinmay qoladi – ko'rinmay qoladi, yana paydo bo'ladi... U ortidan suza boshladi, to'lqinlarni osonlikcha kesib o'tyapti, qo'l harakatlari odatdagidek. Lekin yaxshi biladi, ulgurmasligini juda yaxshi biladi...

Dengiz – iliq moviy to'lqinlar – issiq qumda soatlab yotish va Xyugo. – Uning aytishicha, hammadan ham... Yo'q, Xyugo haqida o'ylash mumkinmas...



U ko'zini ochib, qarshisida o'tirgan baland bo'yli, oftobda qoraygan, moviy ko'z, do'rdoq lablari burishgan erkakka norozi qiyofada ko'z tashladi. «Bas boylashim mumkin, butun umri sargardon o'tgan. Ko'pni ko'rgan odamligi aniq...»

Ro'parasida o'tirgan qiz haqida tasavvur hosil qilish uchun Filipp Lombardga bir qarashning o'zi kifoya qildi. Chiroylikkina, lekin ko'zlarida o'qituvchilarga xos nimadir bor... Sovuqqon. Hayotda ham, sevgi-muhabbat borasida ham o'zini xafa qildirib qo'ymasligi shubhasiz. Bir omadini sinab ko'rsamikan?

Shuni o'ylarkan, birdan qoshlarini chimirdi. Yo'q, yo'q, hozir bunga vaqt qayda? Oldinda ish kutib turibdi. Butun e'tiborini shunga qaratishi kerak. Qiziq, qanaqa ish kutib turgan ekan-a?

Morris vaziyatni chigallashtirdi:

– O'zingizga havola, kapitan Lombard, xohlamasangiz, voz keching.

Filipp o'ychan so'z qotdi:

– Yuz giney taklif qilyapsizmi? – Buni shunchalik beparvo aytdiki, go'yoki u uchun yuz giney arzimagan chaqadek. Naq yuz giney-a! Axir hozir tushlik qilganiyam puli yo'q. Baribir, Morrisni alday olmagan chiqar. Uni pul masalasida alday olmaysan – unaqa odam emas. Yer tagida ilon qimirlasa biladi.

– Boshqa hech narsa aytolmaysizmi? – xuddi shunday beparvo ohangda davom etdi u.

Janob Ayzek Morris siyqa boshini keskin chayqab qo'ydi:

– Yo'q, janob Lombard, shu bilan gapimga nuqta qo'yaman. Xatarli ishlarda sizga hech kim



teng kelolmasligi mijozimga ma'lum. Sizga yuz giney berib qo'yishni topshirishdi – evaziga siz Devondagi Stiklxevnga borishingiz lozim. Unga eng yaqin stansiya Oukbrij. O'sha yerda sizni kutib olishadi va mashinada Stiklxevnga yetkazishadi. U yerdan motorli qayiqda Zanjilar oroliga suzib ketasiz. Orolida esa mijozim ixtiyoriga o'tasiz.

– Ko'pgami? – atigi shuni so'radi Lombard.

– Ko'pi bilan bir haftaga.

Mo'ylovini silagancha kapitan Lombard dedi:

– Noqonuniy ishlarga toqat qilolmasligimni bilsangiz kerak?

Shu jumlani aytarkan, suhbatdoshiga shubhali qarab qo'ydi. Qalin lablarida nim tabassum ko'rinsa-da, janob Morris mutlaqo jiddiy javob berdi:

– Agar sizga noqonuniy nimadir taklif qilishsa, rad qilishga to'liq haqqingiz bor, albatta.

Keyin jilmayib qo'ydi – voy gustohl! Shunday jilmaydiki, go'yo Lombard o'tmishda umuman qonun jonkuyari bo'lmaganini bilib turgandek.

Lombard ham iljayishdan o'zini tiyolmadi. Albatta, bir-ikki marta qo'lga tushishiga sal qolgan! Lekin unga hammasi qo'l kelardi! Uni deyarli hech narsa to'xtatolmasdi. Xuddi shunday, deyarli hech narsa. Aftidan, Zanjilar orolida ham zerkib qolmaydi...

Miss Brent – u chekmaydiganlar uchun ajratilgan vagonda ketib borardi – go'yo tayoq yutgandek tik o'tirar, o'ziga erk berish unga tamomila yot edi. Yoshi oltmish beshdan oshgan, zamona-



viy beboshliklarni ma'qullamasdi. Otasi, eski polkovnik gavadani qanday tutishga hammadan ko'p e'tibor qaratardi. Zamonaviy yoshlar o'taketgan tartibsiz – g'alati qiliqlariga ko'z tashlasang bas, umuman olganda, bir qarashda tushunarli...

O'zidagi taqvodorlik va mustahkam irodadan mamnunlik hissi miss Emili Brentga odamlar bilan liq to'la uchinchi klass vagonda ketish noqulayliklari va dimiqqan havo haqida o'ylamaslikka ko'maklashardi.

Hozir hamma o'ziga erk bergan. Tishni faqat og'riqsiz sug'urishadi, uyqusizlikdan har xil uyqu dori yutishadi, faqat yumshoq kursilarda yoki qo'ltiqqa yostiq tiqib o'tirishadi, yosh qizlar esa xudo biladi qanaqa kiyimda yurishibdi, korset taqishmay qo'ygan. Yozda bo'lsa, uzzukun yarimyalang'och plyajda yotishadi... Miss Brent lablarini qimtidi. Muayyan doira odamlari o'zini qanday tutishi lozimligini o'z misolida ko'rsatib bergisi kelardi... Yodiga o'tgan yoz tushdi. Yo'q, yo'q, bu yil hammasi butunlay boshqacha bo'ladi. Zanjilar oroli... Keyin ko'p o'qiyverganidan yod bo'lib ketgan xatni yana ko'z oldiga keltirdi:

«Qadrli miss Brent, meni haliyam unutmagan-siz degan umiddaman. Bir necha yil avval, avgustda Bellxevn pansionida birga yashagandik. O'rtamizda umumiy jihatlar juda ko'pdek tuyulgandi menga o'shanda.

Endi Devon sohili yaqinidagi orolchada xususiy pansionat ochyapman. Menimcha, u asil taomlarga boy, yangi urf bo'lgan ermaklardan yiroq pansion uchun juda mos tushadi – qisqasi, siz kabi osuda hayot va nazokatni odat qilgan eski maktab odam-



lari uchun pansion. Bu yerda yarimyalang'och yoshlar ham, qoq tunda orombuzar grammofonlar ham bo'lmaydi. Yozda Zanjilar orolida dam olishga imkon topolsangiz, juda xursand bo'lardim. Albatta, aziz mehmonim sifatida mutlaqo bepul. Sizga avgust ma'qul keladimi? Aytaylik, sakkizinchi sanadan boshlab?

Samimiyat ila A. N...»

– Baribir ismi nima edi-ya? Imzosi ham juda taajjub. Hozir hamma naridan beri qo'l qo'yishga o'tgan. – Emili Brentning zardasi qaynadi.

U Bellxevnda uchratgan odamlarni birma-bir xayoliga keltirdi. Surunkasiga ikki yozni o'sha yerda o'tkazgandi. U yerda haligi yoqimtoy keksa ayol yashardi. Missis, missis – aytgancha, familiyasi nima edi-ya? Otasi ruhoniy bo'lgan. Yana u yerda miss Olton yoki Oden bilan tanishgan. Yo'q, yo'q, familiyasi Onon edi! Ha, albatta, Onon!

Zanjilar orolil Gazetalarda Zanjilar oroli haqida ko'p yozishdi. Avval allaqanday kino yulduzgami-yey, amerikalik millionergami-yey qarashli bo'lgan ekan. Albatta, ko'pincha bunaqa orollar suvtekinga sotiladi – har kim ham orol sotib olishni xohlamaydi. Dastlab orolda yashash haqiqiy sarguzashtdek tuyuladi. U yerga joylashib olgandan keyin shunaqa daxmazalarga duch kelasanki, undan tezroq qutulsam edi, deya orzu qilishga tushasan. «Nima bo'lgan taqdirda ham, – deb o'yladi Emili Brent, – men uchun bepul dam olish kafolatlangan. Ayniqsa hozir, moddiy ahvoli tang bo'lib turgan bir paytda pulni tejab qolish imkonini qo'ldan chiqarmaydi. Axir tuzukroq di-



vidend ham tó'lashmayapti. Afsus, o'sha missis haqida deyarli hech narsani eslay olmayapti. Onon xonim deganlari balki yoshgina qizdir».

General Makartur oynadan ko'z tashladi. Poyezd Ekseterga yaqinlashib qolgandi. General o'sha yerda boshqa poyezdga o'tirishi kerak. Temiryo'llar ilon izi bo'lgani yetmagandek, poyezdning toshbaqa tezligidan har qanday odamning qoni qaynab ketadi. Axir to'g'ri yurilsa, Zanjilar oroli qo'l uzatsa yetgulik joyda.

O'sha Onim kimligini, baribir, tushuna olmadi. Aftidan, Proyd Leggard bilan Jonni Dayerning og'aynisi bo'lsa kerak.

«Harbiydagi eski do'stlar to'planamiz... Qadr-don davrlar haqida gaplashgim kelyapti».

«Nima derdi, qadr-don davrlar haqida o'zi ham bajonidil gaplashadi. Unga go'yo keyingi yillarda eski do'stlari o'zini chetga olib qochayotgandek tuyulardi. Hammasi o'sha la'nati mishmishlar tufayli! Qarang-al Axir oradan oz emas, ko'p emas, naq o'ttiz yil o'tgan bo'lsal Albatta, Armitij valaqlab qo'ygan, — degan xulosa-ga keldi. — Surbet ko'ppak. Xo'sh, u nimaniyam bilardi? Ha, mayli, o'ylab o'tirishga arzimaydi bu. Bundan tashqari, faqat o'zigagina goh u, goh bu og'aynisi olayib qarayotgandek tuyulyapti, xolos.

O'sha Zanjilar oroli qanaqaligini ko'rish ham qiziq. U haqda qancha mishmish tarqalmadi. Aftidan, uni Harbiy flot, Harbiy vazirlik yoki Harbiy havo kuchlari sotib olgani haqidagi ovozalar unchalik ham haqiqatdan yiroq emas...

Oroldagi uyni amerikalik yosh millioner Elmer Robson qurdirgan. Aytishlaricha, buning



uchun bir dunyo pul sarflagan. Shunday ekan, u yerdagi dabdaba chinakamiga shohona...

Ekseter! Yana bir soat poyezdda yurish kerak! Har qanaqasiga bardosh yetmaydi. Qaniydi, tez-roq yursak...♦

Doktor Armstrong Solsberi tekisligi bo'ylab o'z «Morris»ida ketib borardi. Tinkasi quridi... Muvaffaqiyatning o'ziga yarasha azobi ham bor. Xarlistritdagi hashamatli xonasida, zamonaviy apparaturalar qurshovida oppoq libosga burkangancha kunni kunga ulab, oldinda nima kutib turganini bilmay, muvaffaqiyatmi, yoki aksincha deya yurak hovuchlab o'tirgan damlar o'tdi-ketdi.

Muvaffaqiyat qozondi. Toleyi baland ekan! Chunonchi, omadning bir o'zi kamlik qiladi, yana yaxshi professional bo'lish ham kerak. U o'z ishini bilardi, lekin muvaffaqiyat uchun bu yetarli emas. Yana omad kulib boqishi ham kerak. Unga omad kuldi! Aniq tashxis, bir-ikkita minnatdor bemor, yana kimlar deng – badavlat va jamiyatda martabali ayollar – qarabsizki, u haqda gapira boshlashdi: «Armstrongga uchrab ko'ring, yosh bo'lsa ham, shunaqa bilimdon. Masalan, Pemni oling. Kimlarda davolanmadi deysiz, yillab, gapimni eshityapsizmi, yillab davolandi. Faqat Armstrong unga nima bo'lganini bir qarashda darrov tushundi».

Shu-shu ishlar yurishib ketdi.

Doktor Armstrong taniqli shifokorga aylandi. Endi kunlari daqiqama-daqiqa taqsimlab qo'yilgan. Dam olishga vaqti qolmasdi. Shuning uchunmi, bugungi farahbaxsh avgust tongida



ko'ngli tog'dek ko'tarildi. Axir Londonni tarkib, bir necha kunni Devon qirg'og'idagi orolda o'tkazish uchun jo'nab ketyapti. Albatta, buni ham to'laqonli dam olish deb bo'lmasdi. Maktub g'oyat mujmal jumlar bilan bitilgan bo'lsa-da, unga ilova qilingan chek har qanday shubhani tumandek tarqatib yuborardi. Aql bovar qilmas gonorar. O'sha Onimlarda pul achib yotgan bo'lsa kerak. Aftidan, er rafiqasi salomatligidan qattiq tashvishda, lekin uni bezovta qilmay ahvol qandayligini bilmoqchi. Ayol esa hech qachon shifokorga ko'rinishni xohlamaydi. Shunday asab bilan...

«O'rgildim, bunaqa asablardan! – doktorning qoshlari chimirildi. – O'rgildim, bu ayollar-ularidagi asablardan!» Lekin nimayam derdi, ayollardagi injiqlik unga faqat foyda keltirdi. Uni yo'qlab kelgan ayollarning teng yarmi hech qanday kasal emasdi. Shunchaki zerikkandan o'zlarini kasalga chiqarishadi. Lekin bu haqda bir og'iz aytib ko'r-chi! Va nihoyat, u yoki bu nag'mani qidirib topish qiyinmi: «Sizda (qandaydir uzunroq ilmiy atama) biroz me'yorida emas. Hech qanday jiddiy muammo yo'q, ammo davolanib olishingiz kerak. Davolanish eng oson...» Axir tibbiyotda ko'pincha ishonch davolaydi. Doktor Armstrong esa o'z ishida nimanidir bilar, umid bag'ishlash va tasalli berishda esa oldiga hech kim tusholmasdi.

«Baxtiga, o'sha voqeadan so'ng, qachon bo'lgandi o'zi – o'n, yo'q-yo'q, allaqachon o'n besh yil bo'ldi, o'zini qo'lga ola bildi. Chinakam mo'jiza tufayli qutulib qoldi. Ha, o'shanda bir-



dan cho'kib qolgandi. Biroq ruhiy iztirob irodasi-ni namoyon qilishga majbur qildi. Ertasi kunoyoq ichishni tashladi. O'shanda qutulib qolgani rost-dan ham mo'jiza bo'lgandi...»

Quloqni qomatga keltiruvchi avtomobil shov-qinidan seskanib tushdi. Yonidan soatiga kami-da bir yuz o'ttiz kilometr tezlikda bahaybat «Super sporte dalmeyn» g'izillab o'tib ketdi. Doktor Armstrong to'siqqa urilib ketay dedi. «Yo'lda o'pkasini qo'ltiqlab yuradigan kallavaram yosh-lardan biri bo'lsa kerak. Shunchalik joniga tegib ketishdi. Axir mo'jiza tufayli omon qoldi – bu gal ham. Jin ursin, o'sha galvarsnil!»

Toni Marston mashinasini chinqirtirganicha Mia qishloqchasidan o'tib borarkan, o'zicha o'ylardi: «Bunaqa shaldiroq aravani qayerdan olishadi? Toshbaqaga o'xshab sudralishadi. Eng yomoni, yo'l berish u yoqda tursin, albatta, yo'lning o'rtasidan yurishi kerak! Bizning yo'l-larda yurish qanaqa bo'lishini ko'rsatib qo'yol-maysan. Fransiyada bo'lsa, boshqa gap...

Shu yerda to'xtab, tomoq ho'llab olsamikan yoki ketaversinmi? Vaqt degani bemalol. Atigi yuz ellik chaqirim yo'l qoldi, xolos. Mayli, zan-jabilli limonad qo'shilgan djin ichib oladi. Axir bunaqa issiqqa odam zoti chidamaydil

Menimcha, ob-havo pand bermasa, orolchada miriqib dam olish mumkin bo'ladi. Qiziq, o'sha Onim qanaqa odam ekan o'zi? «Ko'rmaganning ko'rgani qursin» xilidan bo'lsa kerak. Pulini qayoqqa sarflashni bilmay boshi qotyapti. Mal-la bunaqa odamlarning darrov isini oladi. Ha-da, dangalini aytganda, boshqa nima ham qilsin



bechora. Axir o'zining sariq chaqasiyam yo'q bo'lsa...

Ichkilik borasida ziqna bo'lishmasa bas. Holbuki, bunaqa zo'raki boylardan har narsani kutsa bo'ladi. Afsus, orolni Gabriella Tyorl sotib olgani haqida mishmishlar rost bo'lib chiqmadi. Kinoyulduzlar orasida o'ralashib yurishga jon derdi. Na iloj, u yerda, baribir, ofatijon qizlar bo'ladi deb umid qilishdan o'zga chorasi yo'q...»

Marston mehmonxonada ko'p qolib ketmadi. Tashqariga chiqib kerishdi, esnadi, bulutsiz ko'm-ko'k osmonga bir qarab qo'ydi va «Dalmeyn»ga o'tirdi.

Raso qaddi-qomat, baland bo'y, jingalak soch, oftob qoraytirgan yuzda chaq nab turgan moviy ko'zlar har qanday qiz-juvon e'tiborini o'ziga tortardi.

U akseleratorni qattiq bosdi. Motor o'kirib, avtomobil tor ko'chada yeldek ucha boshladi. Qariyalar va xat tashuvchi yigitchalar shosha-pisha o'zlarini chetga olishdi. Ko'chadagi bolalar esa hayrat to'la nigoh bilan mashina ortidan qarab qolishdi.

Antoni Marston g'olibona yurishini davom ettirdi.

Janob Blor sekin yuradigan poyezdda Plimutdan kelardi. Kupeda undan bo'lak atigi yana bita yo'lovchi bor edi. Ichaverganidan ko'zlari xira tortgan dengizchi chol. To'g'rirog'i, hozir u mudroq uyquda edi. Janob Blor hafsala bilan yondaf-tarchasiga nimanidir yozardi. «Mana, ularning bari, – deb o'zicha g'udrandi. – Emili Brent, Vera Kleytorn, doktor Armstrong, Antoni Marston,

AGATA KRISTI

ЎНҲА
negr bolasi



«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-25-546-3



9 789943 255463